

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARGA YO'NALTIRISH USULLARI

*Esonova Malohat Akilovna*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Sirojiddinova Sug'diyona Nuriddin qizi*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish, markazlar mazmuni, faoliyati, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarga qanday yo'naltirish kerakligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism tashkiloti, rivojlantiruvchi markaz, mazmuni, faoliyat, tashkil etish, yo'naltirish, til, nutq, qurish-yasash, matematika, san'at, fan va tabiat.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lism tarbiya jarayoniga samarali shakl va usullarni joriy etish hamda innovatsion g'oyalarni targ'ib etishga qaratilgan maktabgacha ta'lismning samarali tizimini tashkil etish muhim vazifalarimizdan biridir. Bugungi kunda Maktabgacha ta'lism tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfatlari yo'lida xizmat qilishiga shuningdek maktabgacha ta'lism sifatini yaxshilashga qaratilgan. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asisiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatini tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobilyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik,mustaqliliz,tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatiga berishdir.

"Maktabgacha ta'lism va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni,O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son va "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantrish konsepsyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8-maydag'i PQ-4312-son qarorlariga asosan, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lism-tarbiya jarayoniga samarali ta'lism va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Shu bois bolaning ko'rgazmali rivojlantiruvchi muhiti orqali bolalarning har tomonlama intellektual,ahloqiy,estetik va jismoniy rivojlantirish lozim

Rivojlanish markazlari talimiylarini, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarini bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashi kerak, bolalar va kattalar o'rtafiga o'zaro munosabatlarni shaxsga yo'naltirilga ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak. Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab qilinadi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolani ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilish kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi ro'lini hisobga olish kerak. Maktabgacha ta'lism tashkilotidagi markazlarni sanab o'tamiz. "Til va nutq" markazi ushbu markazda bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarcha suhbatlardan tashkil etish imkoniyati mavjud.

"Qurish-yasash konstruksyalash va matematika"markazi: Markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish-yasash, ham matematika bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega.

“San’at” markazida bolalarning kayfiyatini ko’tarish imkoniyati mavjud bolalarni ijodiy qobilyatlari qo’llab quvvatlanadi. Markazda ishlash orqali bolaning mayda matorikasi rivojlanadi. Mayda matorikaning rivojlanishi esa bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo’ladi.

“Sujetli-ro’lli o’yinlar va drammalashtrish” markazi: Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo’loishiga, o’z mahoratini ko’rsatishi uchun juda qulay. Bu markaz orqali bolalarda “Shaxsiy” tushunchasi shakllanadi.

“Ilm-fan va tabiat” markazi: Tajriba sinov maydonchasida o’tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg’otadi va yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi xodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat va bu markazni to’g’ri ishlatsa bolalar tabiat haqidagi 90 foiz bilimni shu yerda olishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joyizki, “Maktabgacha ta’lim tashkilotida” Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlantiruvchi markazlarga yo’naltirishda asosan markazlarning jihozlanganiga va pedagog qobilyatiga e’tibor berish kerak. Biz muhtaram Prezidentimiz ta’lim to’g’risidagi PQ-289-son bilan, talabalarga 4+2 yani to’rt kun o’quv jarayoni ikki kun o’quv amaliyoti jarayonida bo’lmoqda. Shu bilan birga biz amaliyot jarayonida biz shuni ko’rshimiz mumkinki Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda jihozlar yetarli emasligini guvohi bo’lmoqdamiz. Buni bartaraf etish uchun biz xorijiy tajribalarni va ta’lim tizimini o’rganib, zaruriy jihatlariniuni tadbiq etishimiz lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son
2. “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantrish konsepsyasini tasdiqlash to’g’risida” 2019 yil 8-maydagi PQ-4312-son
3. Sh. Mirziyoyev “2017-2021-tillarda matkabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” 29.12.2016 y.
4. ”Ilk qadam” davlat dasturi.(II nashr).2022yil 4 fevral
5. “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimi 2030 yilgacha rivojlantrish Konsepsiysi” 2019 yil 8 may.
6. G. Nazirova, МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ФУРУР ҲИССИНИ ШАКЛАНТИРИШ-ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА - Science and innovation, 2022
7. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O’QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG’ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
9. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
10. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).

11. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:YsMSGLbcyi4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:YsMSGLbcyi4C)
12. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:qjMakFHDy7sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:qjMakFHDy7sC)
13. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)

